



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2024 yil 26-dekabr, № 269 (8892)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



KO'P QIRRALI SHERIKLIKNI YANGI YO'NALISHLARDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI KO'RIB CHIQUILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida MDH davlatlari rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.



Tadbirida Rossiya Prezidenti Vladimir Putin, Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Uchrashuvda 2024-yildagi birgalikda olib borilgan ishlarning asosiy yakunlari sarhisob qilindi va ko'p tomonlama hamkorlikning kelgusi yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalari ko'rib chiqildi.

Mintaqa ichida savdo va kooperatsiyani, eng avvalo, o'zaro savdodagi to'siqlarni bartaraf etish orqali kengaytirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimligi qayd etildi.

Ko'p qirrali sheriklikni yangi yo'nalishlarda rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi. Muhandislik maktablarini tashkil etish, internet texnologiyalari, katta ma'lumotlar industriyasi, kreativ iqtisodiyot, "yashil" energetika va tinch atom sohasini rivojlantirish, raqamli yechimlarni joriy etish shular jumlasidan.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik hamda umumiy ta'hdid va xatarlarga qarshi kurashda MDH doirasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish borasidagi dolzarb masalalar ham muhokama qilindi.

O'z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmatlari surati.

Milliy komissiya majlisi

AMALIY ISH VA NATIJALARGA E'TIBOR QARATILDI

"Xavf-xatardan keyin muammo bilan behuda kurashgandan ko'ra uning oldini olish choralari ko'rish lozim", "Topshiriq kutib o'tirish kerak emas", "Ayrim tashkilotlar bor-yo'g'i "pochtalyon" vazifasini bajarib qolyapti..."

Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya majlisi shu kabi keskin tanqid va mulohazalarga boy tarzda o'tdi. Majlisi Oliy Majlis Senati Raisi, milliy komissiya raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Unda milliy va hududiy komissiya a'zolari, mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Majlisda respublikamizda odam savdosi va munosib mehnat masalalari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, xalqaro hamkorlik doirasida erishilgan natijalar hamda kelgusidagi vazifalar muhokama qilindi. Ta'kidlash kerakki, o'tgan davr mobaynida sohaga oid milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, xalqaro normalarni amaliyotga keng tatbiq etishga alohida e'tibor qaratildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Aholi manfaatlarini kafolati va mustahkam huquqiy asos

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda quyi palata Spikeri N. Ismoilov yurtimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib kelinayotganini, shu yil 20-dekabr kuni mamlakatimiz rahbari joriy yilda ikkinchi marotaba faol tadbirkorlar bilan uchrashgani va bu ularni yanada ruhlantirganini qayd etdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qator qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga oid tashabbuslar ilgari surilgani, o'z navbatida, quyi palatadagi qo'mitalar, siyosiy partiyalar fraksiyalari o'z faoliyatida ushbu yo'nalishda ustuvor vazifalarni belgilab olgani ta'kidlandi.

Majlisda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish, jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar huquqlarini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlari yanada kuchaytirish, faxriy unvon ta'sis etish, tadbirkorlik subyektlari huquqlarini yanada ta'minlash, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga doir qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

"Yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtiriladi

Majlisda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda atroflicha ko'rib chiqildi. Mamlakatimizda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, tergov organlarining faoliyatini qonun ustuvorligi va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash tamoyili asosida takomillashtirish, respublika moliya tizimi barqarorligini ta'minlash borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga byudjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini ta'minlash, iqtisodiy jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etish, har tomonlama, to'la va xolis tergov qilish sohasida qo'shimcha vazifalar yuklatildi. Bu esa, o'z navbatida, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining vazifalari va vakolatlari amaldagi qonun hujjatlarida aks ettirish zarurati yuzasidan keltirildi.

Qonun loyihasi yuzasidan ma'ruza qilgan deputat Sherzod To'xtashev davlatimiz rahbarining tegishli Farmoniga ko'ra ishlab chiqilgan mazkur qonun loyihasi bilan Jinoyat-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Byudjet kodekslariga Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining iqtisodiy jinoyatlarini tergov qilish, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish sohasidagi vakolatlari aniqlashtirilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 15-oktabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 19-dekabrda ma'qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishga, aholiga ko'rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini oshirishga, shuningdek soliq to'lovchilar uchun soliq yukini kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga mavjud preferensiyalarning amal qilish muddatini uzaytirish, shuningdek vaqtinchalik soliq imtiyozlari qo'llaniladigan faoliyat turlari ro'yxatini kengaytirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimcha manbalardan daromad oluvchi byudjet tashkilotlari uchun belgilangan soliq stavkalarining amal qilishini 2027-yilning 1-yanvarigacha uzaytirish, shuningdek jami daromadning chegaraviy miqdori 5 milliard so'mdan 10

milliard so'mga oshirish, ushbu daromad mavjud bo'lganda soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarini to'liq chorak o'tganidan keyin to'lashini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan beriladigan byudjet subsidiyalari jami daromad tarkibiga kiritilmasligini belgilovchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 3-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 18-dekabrda ma'qullangan

Soliq yukini izchil ravishda pasaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish, shuningdek soliq ma'muriyatini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va mamlakatning investitsiyaviy jizbadorligini oshirishning eng muhim shartlaridir.

Shu bilan birga bozor islohotlarini yanada jadallashtirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq

muloqoti doirasida kelib tushgan takliflar va tashabbuslarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkilotining bitimlariga muvofiqlashtirish, shuningdek energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llash hisobidan hududlarda energiya tanqisligini bartaraf etishga doir ishlarni bundan buyon ham amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalarini realizatsiya qilish bo'yicha aylanmaning qo'shilgan

qiymat solig'idan ozod etilishini, shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini bo'yicha yer solig'ini ikki baravar miqdorida hisoblash tartibi bekor qilinishini, yakka tartibdagi tadbirkor xodimlari tomonidan to'lanadigan ijtimoiy soliq summasi kamaytirilishini, shuningdek soliq to'lovchilar bo'xona chegarasini kesib o'tganligini tasdiqlovchi belgi qo'yilgan tovarning kuzatuv hujjatlarini soliq organlariga taqdim etish majburiyatidan ozod etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

(Davomi 2, 3-betlarda).

Oliy Majlis Senatida

QONUN IJROSI NAZORATDA

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisida "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha belgilangan vazifalar ko'rib chiqildi.

Tadbirida Senat a'zolari, Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari a'zolari, ekspertlar, viloyat hokimliklari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat tashkilotlari rahbarlari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi mas'ul

xodimlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy baza hamda tizim shakllantirilib,

davlat xizmatlari ko'rsatishni raqamlashtirish orqali inson omili minimal darajaga kamaytirildi. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha ijobiy yutuqlarga erishildi.

Joriy yilda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi korrupsiyaviy omillarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning muhim mexanizmlarini belgilab berdi.

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINING TAYANCHI VA SUYANCHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha joriy yil yakunlari va 2025-yilga asosiy rejalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi hamda yetakchi tadbirkorlar bilan muloqotdan:

- turizm sohasida katta ishlar qilindi. Tadbirkorlarning 6,5 trillion so'm sarmoyasi bilan 24 ming o'rinli mehmonxonalar ishga tushdi;
- kelgusi yilda mehmon o'rinlari yana 30 mingga oshadi. Tadbirkorlar 10 trillion so'm investitsiya kiritishga tayyor;
- 2024-yil ishga tushgan 17 ta yirik savdo va turistik maskanga qo'shimcha yana 25 ta shunday majmua qo'shiladi;
- Bo'stonliqda 10 milliard dollarlik "Sea Breeze" nomli yirik markaz qurilishini boshlashga kelishib olindi;
- mamlakatimizga dunyoning nufuzli "Swissotel", "Sheraton", "Ritz-Carlton", "Novotel", "Pullman", "Marriott", "Ibis", "Mercure" kabi 23 ta mehmonxonalar brendlari kirib kelyapti.

O'zbekiston Respublikasining

QONUNI

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Bundan tashqari o'z mablag'larini hisobidan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining binolarini qurish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga nisbatan foyda solig'i bo'yicha vaqtinchalik soliq imtiyozlari berilmoqda.

Mazkur Qonun ta'lim tizimini takomillashtirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratishga, aholiga ko'rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini oshirishga, shuningdek soliq to'lovchilar uchun soliq yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

1-modd. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O'RBQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-modd, № 10, 593-modd, № 11, 652-modd, № 12, 690, 691-moddalar; 2021-yil, № 1, 6-modd, №

4, 294-modd, 4-songa ilova, № 8, 800-modd, № 9, 901-modd, № 10, 968, 969, 972, 973-moddalar, № 12, 1199-modd; 2022-yil, № 2, 79-modd, № 3, 215, 216-moddalar, № 5, 461, 464, 467-moddalar, № 6, 570-modd, № 7, 664, 666-moddalar, № 12, 1190-modd; 2023-yil, № 6, 444, 446-moddalar, № 7, 540-modd, № 12, 1011-modd; 2024-yil, № 2, 106, 110, 111-moddalar, № 4, 346-modd, № 5, 458, 459-moddalar, № 8, 822, 831-moddalar, № 9, 958-modd) quyidagi o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilishi:

- 1) 337-moddaning oltinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;
2) 340-moddaning sakkizinchi qismidagi "besh milliard" degan so'zlar "o'n milliard" degan so'zlar bilan almashtirilish;
3) 369-modd birinchi qismining 1-bandidagi "pul mukofoti va sovg'alar" degan so'zlar "pul mukofoti, sovg'alar va byudjet subsidiyalari" degan so'zlar bilan almashtirilish;
4) 483-modd: o'ttiz sakkizinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;
5) 267-moddaning oltinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;
6) 261-moddaning oltinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;
7) 261-moddaning oltinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;
8) 261-moddaning oltinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;
9) 261-moddaning oltinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;
10) 261-moddaning oltinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;
11) 261-moddaning oltinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;
12) 261-moddaning oltinchi qismidagi "2024" raqami "2027" raqami bilan almashtirilish;

mazkur binolarning qiymatini amortizatsiya tarzida chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiritishga haqli.

Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlarini bepul asosda o'qishga qabul qilish bo'yicha litsenziya talablari bajarilmagan taqdirda, ushbu moddaning ellik ikkinchi qismida nazarda tutilgan amortizatsiya chegirimalari ushbu Kodeksning 306-moddasida nazarda tutilgan amortizatsiya normalarini qo'llash hisobidan bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha protez moslamalari va ularning butlovchi, ehtiyot qismlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentlari bo'lgan vagonlar (konteynerlar) operatorlarining temir yo'l transportida tashish jarayonida vagonlarni (konteynerlarni) ijara shartnomasi asosida foydalanishga berish yuzasidan xizmatlar ko'rsatish bo'yicha aylanmasi qo'shilgan qiymat solig'idan 2024-yil 1-noyabrdan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda ozod etiladi.

2-modd. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Transport vazirligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlash.

3-modd. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativi-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlash.

4-modd. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonun 1-moddasi 1, 2-bandlarining hamda 4-bandi ikkinchi xatboshisining qoidalari 2024-yil 1-yanvardan e'tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu Qonun 1-moddasi 4-bandi oltinchi xatboshisining qoidalari 2024-yil 1-apreldan e'tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu Qonun 1-moddasi 4-bandi yettinchi xatboshisining qoidalari 2024-yil 1-noyabrdan e'tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2024-yil 24-dekabr № O'RBQ 1013

O'zbekiston Respublikasining

QONUNI

Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Ushbu Qonun bilan mobil aloqa xizmatlarining aksiz solig'ini solishdan ozod etilishi, noshirik-matbaa faoliyati, axborot texnologiyalari, ta'lim muassasalarining o'quvchilarini tadbirkorlarga ishga joylashtirish, yoshlarni avtomobil yo'llaridagi ko'chma savdo obyektlari orqali tovarlarni realizatsiya qilishga jalb etish, tadbirkorlik subyektlari tomonidan kam ta'minlangan oila a'zolarini ishga qabul qilish orqali ularni qo'llab-quvvatlash sohasida vaqtinchalik soliq imtiyozlari joriy etilishi, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlari berilishi ham nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari tamaki va alkogol mahsulotlari, neft mahsulotlari hamda aksiz to'lanadigan boshqa tovarlar uchun soliq stavkalari, mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanilgan uchun soliq, yer qal'adan foydalanilgan uchun soliq, aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq stavkalari o'zgartirilmoqda. Shuningdek tovarlarni (xizmatlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan daromadlarni qo'llab-quvvatlash uchun beriladigan foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq imtiyozlari bekor qilinmoqda, aylanmadan olinadigan soliqning qat'iy belgilangan stavkalari, soliq stavkasi bo'yicha soliqni qat'iy belgilangan summada to'lashning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi normalar bekor qilinmoqda.

Shuningdek mazkur Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kamayishini, soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yoki bekor qilinishini, shuningdek soliq bo'lmagan tushumlardan byudjet tizimi byudjetlariga ajratmalarning kamayishini yoki ko'payishini nazarda tutuvchi qonunchilik normalari keyingi moliya yilining 1-yanvardan e'tiboran amalga kiritilishi to'g'risidagi qoidani belgilo'vchi o'zgartirish kiritilmoqda.

Bundan tashqari mazkur Qonun bilan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalariidan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qayta tiklanuvchi energiya manbalariidan foydalanish sohasida soliq imtiyozlari belgilanishini nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritilmoqda.

Ushbu Qonun 2025-yilga mo'ljallangan Davlat byudjetini tayyorlashda nazarda tutilgan soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish uchun "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini tayyorlashda nazarda tutilgan zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratilishiga, qayta tiklanuvchi energiya manbalariining keng joriy etilishiga hamda ko'p qavatli ishlab chiqarish binolarining qurilishi rag'batlantirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

1-modd. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan O'RBQ-360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, 12-songa 1-ilova; 2014-yil, № 9, 244-modd; 2015-yil, № 12, 452-modd; 2016-yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 6, 300-modd, № 10, 605-modd, № 12, 772-modd; 2018-yil, № 1, 1-modd, № 7, 431, 433-moddalar, № 12, 783-modd; 2019-yil, № 1, 1-modd, № 5, 265-modd, № 8, 470-modd, № 9, 588-modd, № 11, 791-modd, № 12, 884, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 203-modd, № 11, 652-modd, № 12, 691-modd; 2021-yil, № 1, 7, 13-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 803, 804-moddalar, № 10, 973-modd, № 12, 1198-modd; 2022-yil, № 5, 464-modd, № 6, 577-modd; 2023-yil, № 4, 272-modd, № 11, 923-modd; 2024-yil, № 9, 958-modd) 1-bobi quyidagi mazmunda 51-modd bilan to'ldirilishi:

«51-modd. Byudjet daromadlarining kamayishini, soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yoki bekor qilinishini, shuningdek soliq bo'lmagan tushumlardan byudjetga ajratmalarning kamayishini yoki ko'payishini nazarda tutuvchi normalarni amalga kiritish tartibi

Moliya yili mobaynida byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kamayishini, soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yoki bekor qilinishini, shuningdek soliq bo'lmagan tushumlardan byudjet tizimi byudjetlariga ajratmalarning kamayishini yoki ko'payishini nazarda tutuvchi qonunchilik normalari keyingi moliya yilining 1-yanvardan e'tiboran amalga kiritiladi».

2-modd. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-mayda qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalariidan foydalanish to'g'risida"gi O'RBQ-539-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 5, 264-modd; 2020-yil, № 11, 652-modd; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 570-modd; 2024-yil, № 2, 106-modd) 14-moddasining matni quyidagi tahrirda bayon etilsin: "Qayta tiklanuvchi energiya manbalariidan foydalanish sohasidagi soliq imtiyozlari soliq to'g'risidagi qonunchilik bilan belgilanadi".

3-modd. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O'RBQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-modd, № 10, 593-modd, № 11, 652-modd, № 12, 690, 691-moddalar; 2021-yil, № 1, 6-modd, № 4, 294-modd, 4-songa ilova, № 8, 800-modd, № 9, 901-modd, № 10, 968, 969, 972, 973-moddalar, № 12, 1199-modd; 2022-yil, № 2, 79-modd, № 3, 215, 216-moddalar, № 5, 461, 464, 467-moddalar, № 6, 444, 446-moddalar, № 7, 540-modd, № 12, 1190-modd; 2023-yil, № 6, 444, 446-moddalar, № 7, 540-modd, № 12, 1011-modd; 2024-yil, № 2, 106, 110, 111-moddalar, № 4, 346-modd, № 5, 458, 459-moddalar, № 8, 822, 831-moddalar, № 9, 958-modd) quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi:

- 1) 133-moddaning o'n uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: «Bojxona organlari soliq organlariga quyidagilarni taqdim etishi shart: import operatsiyalari to'g'risidagi axborotni, tovarlar bojxona chegarasini kesib o'tganidan keyin eksport operatsiyalari bo'yicha axborotni, shuningdek tovarlarni olib o'tish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali elektron tijorat shaklida amalga oshirilgan tovarlarni olib o'tish haqidagi axborotni real vaqt rejimida;
O'zbekiston Respublikasi noresidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining bojxona omborlarida tovarlar saqlanayotganligi faktlari to'g'risidagi axborotni har oyda»;
2) 243-moddaning birinchi qismi: 15-bandi chiqarib tashlansin;

quyidagi mazmunda 261-band bilan to'ldirilishi: «261) davlat mol-mulkini, shu jumladan mulk huquqi asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalarini»;

3) 256-modd: quyidagi mazmunda oltinchi qism bilan to'ldirilishi: «Ushbu moddaning qoidalari ushbu Kodeks 243-moddasi birinchi qismining 261-bandida nazarda tutilgan tovarlarni realizatsiya qilishda qo'llanilmaydi»;

oltinchi qismi yettinchi qism deb hisoblanishi; 4) 261-modd: birinchi qismining 2 va 3-bandlari quyidagi tahrirda bayon etilsin: «2) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish uchun asos bo'lgan bojxona yuk deklaratsiyasi; 3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar ortigan transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tganligini tasdiqlash belgisi qo'yilgan tovarning kuzatuv hujjatlari»; quyidagi mazmunda ikkinchi qism bilan to'ldirilishi: «Bojxona organlari tomonidan real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvi vositasida soliq organlariga ushbu Kodeksning 133-moddasiga muvofiq tovarlar bojxona chegarasini kesib o'tganligi to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlar tovarlar eksport qilganligini tasdiqlash uchun asos bo'ladi»;

ikkinchi va uchinchi qismlari tegishlana uchinchi va to'rtinchi qismlar deb hisoblanishi; 5) 267-moddaning sakkizinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: «Soliq to'lovchi bo'lmagan shaxs soliq to'lovchi sifatida ushbu Kodeksning 237-moddasiga muvofiq maxsus ro'yxatga olish hisobiga qo'yilganda, shuningdek soliq to'lashdan ozod etish bekor qilingan taqdirda, soliq to'lovchi maxsus ro'yxatga olish hisobiga qo'yish (ozod qilishni bekor qilish) sanasida o'z balansida mavjud bo'lgan tovar-moddiy zaxiralari qoldirilgan va uzoq muddatli aktivlarning balans qiymatida hisobga olingan soliq summasini, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan shartlarga rioya etilgan taqdirda, hisobga olish huquqiga ega»;

6) 269-moddaning ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: «Sotib olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha ushbu Kodeks 267-moddasi birinchi qismining 1 – 4-bandlariga muvofiq ilgari hisobga olish uchun qabul qilinmagan soliq summasi kelgusida ulardan soliq solinadigan aylana uchun foydalanilgan holdarda tuzatiladi (hisobga olinadi)»;

7) 283-moddaning ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: «O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari ham soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi»;

8) 284-modd birinchi qismining 8-bandi chiqarib tashlanishi; 9) 285-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilsin: «Eko dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari) 293 000 so'm/tonna; EKO dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari) 461 000 so'm/tonna; dizel yoki karburator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi 510 000 so'm/tonna»;

10) 286-moddaning nomidagi («xizmatlarga») degan so'z chiqarib tashlanishi; birinchi qismidagi («xizmatlarga») degan so'z chiqarib tashlanishi; 11) 289-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilsin: «Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

1) 289-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilsin: «Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Table with 4 columns: T/r, Tamaki mahsulotlari turlari, Soliq stavkalari (import qilinganda, ishlab chiqariladigan), and Soliq stavkalari (2025-yil 1-yanvardan, 2025-yil 1-apreldan).

- * Belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq chilim uchun tamakisiz aralashmani olib kirishda ham to'lanadi.
** Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlikni (nikotinni) uni iste'mol qilish (elektron va boshqalar) tizimlarida olib kirishda soliq tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik hajmidan kelib chiqqan holda to'lanadi.
Ushbu modda birinchi qismining 1-bandida aksiz solig'ining qat'iy belgilangan stavkasi natijada ifodalangan aksiz to'lanadigan tovarlar hajmiga nisbatan qo'llaniladi.
Ushbu modda birinchi qismining 3 – 6-bandlarida soliq stavkasi tamaki mahsulotidagi tamaki xom ashyosi massasiga nisbatan tamaki xom ashyosi massasi to'g'risidagi axborotni iste'mol qadog'ida (dishiida) ko'rsatish sharti bilan qo'llaniladi. Agar chilim uchun tamaki bo'yicha tamaki xom ashyosi massasi netto og'irligining 20 foizidan kamni tashkil etsa, u holda aksiz solig'i netto (birlamchi qadoqni hisobga olgan holda) og'irligining 20 foizidan hisoblab chiqariladi. Iste'mol qadog'ida (dishiida) tamaki xom ashyosining og'irigi to'g'risidagi axborot mavjud bo'lmagan taqdirda, soliq stavkasi netto (birlamchi qadoqni hisobga olgan holda) og'irligiga nisbatan qo'llaniladi»;
12) 289-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Table with 4 columns: T/r, Alkogol mahsulotlari turlari, Soliq stavkalari (1 litr uchun) (import qilinganda, ishlab chiqariladigan).

13) 289-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilsin: «Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Table with 4 columns: T/r, Tovarlar nomi, Soliq stavkalari (2025 yil 1-yanvardan, 2025 yil 1-apreldan).

- * Mevalar va (yoki) sabzavotlardan tayyorlangan, tabiiy shirin bo'lgan hamda tarkibida qo'shimcha shakar va boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar mavjud bo'lmagan sharbatlarga nisbatan soliq qo'llanilmaydi.
Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksiz to'lanadigan tovarlar, shu jumladan import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlar uchun belgilangan va mazkur tovarlarni olib kirishda qo'llanilmaydi;
to'rtinchi qismidagi "6" raqami "5" raqami bilan almashtirilish;
14) 299-moddaning birinchi qismi ikkinchi jumlasining o'zbekcha matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:
«Qarz oluvchining daromadini aniqlashning xuddi shunday tartibi qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish sanasida stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish

stavkasidan kam bo'lgan foizlar to'lash sharti bilan berilgan qarzlarga (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordamga) nisbatan qo'llaniladi»;

15) 337-modd: birinchi qismining: 6-bandi chiqarib tashlanishi; 8-bandidagi "7,5" raqami "10" raqami bilan almashtirilishi;

Table with 2 columns: T/r, Soliq stavkalari (100 kVt gacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanilgan holda umumiy tarqoqqa elektr energiyasini realizatsiya qilishdan olingan foyda).

quyidagi mazmunda 101-band bilan to'ldirilishi: beshinchi qismidagi "7,5" raqami "10" raqami bilan almashtirilishi; sakkizinchi – o'n beshinchi qismlari quyidagi mazmunda sakkizinchi – o'n ikkinchi qismlar bilan almashtirilishi: «Quyidagilari ushbu modda birinchi qismining 12-bandida belgilangan soliq stavkasini 50 foizga pasaytirishga haqli: 2022-yil 1-sentabrdan keyin ilk marotaba soliq to'lashga o'tgan aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar – soliq to'lovchi soliq to'lashga o'tgan yildan keyingi bir soliq davri mobaynida, bosharti pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladigan soliq davrida soliq to'lovchining jami daromadi o'n milliard so'mdan oshmasa;

2022-yil 1-sentabrdan keyin jami daromadi joriy soliq davri mobaynida ilk marta o'n milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar – joriy soliq davri va keyingi soliq davri mobaynida, bosharti pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladigan soliq davrlarida jami daromadi yuz milliard so'mdan oshmasa.

Bunda ushbu modda sakkizinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar soliq bazasini jami daromadning 25 foizi miqdorida soddalashtirilgan tartibda aniqlashga haqli. Ushbu moddaning sakkizinchi qismida nazarda tutilgan pasaytirilgan soliq stavkasi yer qal'adan foydalanilgan uchun soliqni va aksiz solig'ini to'lovchilarga nisbatan, shuningdek soliq to'lovchi tugatilgan holdarda va (yoki) berilgan pasaytirilgan soliq stavkasini qo'llash uchun ikki va undan ortiq tadbirkorlik subyekti o'rtasida soliq to'lovchining tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarini ajratish (bo'lish) faktlari aniqlangan taqdirda, tatbiq etilmaydi.

Ushbu modda birinchi qismining 101-bandida nazarda tutilgan 0 foiz miqdorida soliq stavkasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran uch yil mobaynida, qo'yosh panelarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to'plash tizimi bilan qo'yosh panelari o'rtasidagi esa – ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran o'n yil mobaynida qo'llaniladi.

Foydal qazilmalarni qazib olish sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan ayrim soliq to'lovchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin»;
16) 343-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: "Yundik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentiga to'lanadigan dividendlarga ushbu Kodeksning 345-moddasida nazarda tutilgan tartibda to'lov manbasida soliq solinadi va bunday daromadlarni oluvchi tomonidan soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadi";
17) 383-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: «Soliqni qat'iy belgilangan miqdordarda to'lovchi soliq to'lovchilar uchun soliq stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Table with 5 columns: T/r, Faoliyat turi, Tashkent shahri, Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar, boshqa shaharlar, boshqa aholi punkt-lari.

(Davomi 3-betda).

Ўзбекистон Республикасининг
ҚОНУНИ

Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2025 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида

(Davomi. Boshlanishi 1, 2-betlarda).

toʻrtinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilisin:

“Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qatʼiy belgilangan soliq stavkalari miqdorini tumanlar hamda shaharlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda, ushbu moddada oʻrnatilgan qatʼiy belgilangan soliq stavkalarining eng kam va eng yuqori stavkalari doirasida belgilaydi”;

18) **385-moddaning sakkizinchi qismi** quyidagi mazmumdagi jumla bilan toʻldirilsin:

“Bunda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadi kalendar yilda yuz million soʻmdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar ular bilan mehnat munosabalarida boʻlgan jismoniy shaxslarning mehnatga haq toʻlash tartidagi daromadlaridan ushbu Kodeks 383-moddasining birinchi qismiga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan stavkalarining 50 foiziga teng miqdordagi soliqni soliq agenti sifatida hisoblab chiqarishga va toʻlov manbaida ushlab qolishga haqli”;

19) **408-modda:**

birinchi qismning 2-bandi chiqarib tashlansin;
uchinchi qismning beshinchi xatboshisidagi “(bundan ushbu modda birinchi qismning 2-bandida koʻrsatilgan jismoniy shaxslar mustasno)” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

beshinchi qismning uchinchi xatboshisidagi “1-dekabrighacha” degan soʻzlar “31-dekabrighacha” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

20) **412-modda birinchi qismi 1-bandining toʻrtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon etilisin:

“Toshkent shahrida – uch million uch yuz ming soʻm;
Nukus shahrida va viloyat markazlarida – ikki million ikki yuz ming soʻm;
boshqa shaharlarda va qishloq joylarda – bir million uch yuz ming soʻm”;

21) **414-modda:**

uchinchi qismning 2-bandi quyidagi tahrirda bayon etilisin:
“2) umumiy quvvati quyidagicha boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari:

100 kVt gacha boʻlgan – qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran uch yil muddatga, quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam boʻlmagan quvvatga ega elektr energiyasini toʻplash tizimi bilan quyosh panellari oʻrnatilganida esa – ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran uch yil muddatga;

100 kVt va undan ortiq boʻlgan – ular foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran oʻn yil muddatga”;

quyidagi mazmumdagi **toʻrtinchi qism** bilan toʻldirilsin:

“Yangi qurilgan koʻp qavatli ishlab chiqarish binolari boʻyicha (bundan respublika shaharlarida, shuningdek Toshkent viloyatining Zangiota, Qibray va Toshkent tumanlarida joylashgan binolar mustasno) soliq toʻlovchilari hisoblangan soliq summasini uch qavatli binoga nisbatan – 0,9, toʻrt qavatli binoga – 0,8, besh qavatli binoga – 0,7, olti qavatli binoga – 0,6, yetti va undan yuqori qavatli binoga – 0,5 pasaytiruvchi koeffitsiyent qoʻllanilgan holda, ushbu binolar foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran uch yildan koʻp boʻlmagan muddatda toʻlaydi. Bunda ushbu qismda belgilangan pasaytiruvchi koeffitsiyent:
mahsulot ishlab chiqarish boʻyicha faoliyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan yordamchi xonalarni, xususan, ofis uchun va oʻzi ishlab chiqargan mahsulotlarni realizatsiya qilish uchun xonalarni, tegishli kasbni egallash uchun tashkil etilgan oʻquv-ishlab chiqarish binolarini hisobga olgan holda, agar ularning maydoni yangi qurilgan koʻp qavatli ishlab chiqarish binosi umumiy maydonning 20 foizidan oshmasa;

agar binodan bir nechta xoʻjalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish maqsadlarida birgalikda foydalanayotgan boʻlsa, binoning har bir mulkdori tomonidan qoʻllaniladi”;

22) **415-modda uchinchi qismning birinchi xatboshisidagi** “0,6” raqami “0,65” raqami bilan almashtirilsin;

23) **421-modda:**

birinchi qismning 4-bandi chiqarib tashlansin;
quyidagi mazmumdagi **uchinchi qism** bilan toʻldirilsin:

“Uy-joy fondining koʻchmas mulk obyektlarida umumiy quvvati 100 kVt gacha boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq summasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari oʻrnatilgan oydan eʼtiboran uch yil davomida, quyosh panellari quvvatidan 25 foizdan kam boʻlmagan quvvatga ega elektr energiyasini toʻplash tizimi mavjud boʻlgan quyosh panellari oʻrnatilganida esa mazkur panellar foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran oʻn yil davomida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan oshmaydigan sumмага kamaytiriladi. Ushbu imtiyoz energiya taʼminoti tashkiloti tomonidan jismoniy shaxsning qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan foydalanishi toʻgʻrisida berilgan maʼlumotomaga asosan uy-joy fondining bitta koʻchmas mulk obyektiga nisbatan faqat bir marotaba taqdim etiladi va jismoniy shaxs tomonidan umumiy quvvati 1 kVt dan ortiq boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari oʻrnatilgan taqdirda qoʻllaniladi”;

uchinchi va toʻrtinchi qismlari tegishincha **toʻrtinchi va beshinchi qismlar** deb hisoblansin;

beshinchi qismidagi “ushbu modda birinchi qismning 4-bandida koʻrsatilgan” degan soʻzlar “ushbu moddaning uchinchi qismida koʻrsatilgan” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

24) **422-moddaning birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilisin:
“Soliq stavkalari quyidagi miqdordarda belgilanadi:

T/r	Soliq solish obyektlari	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha boʻlganlarini qoʻshib hisoblaganda), koʻp kvartirali uylarga uzviy bogʻliq boʻlgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,34
2.	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni: 200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha boʻlgan 500 kv.m dan ortiq boʻlgan	0,45 0,6
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq boʻlgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,45
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar ijara berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlari	1,5

25) **428-moddaning:**

birinchi qismi chiqarib tashlansin;
ikkinchi va uchinchi qismlari tegishincha **birinchi va ikkinchi qismlar** deb hisoblansin;

birinchi qismi:
oʻn birinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;
oʻn ikkinchi va oʻn uchinchi xatboshilari tegishincha **oʻn birinchi va oʻn ikkinchi xatboshilar** deb hisoblansin;

quyidagi mazmumdagi **oʻn uchinchi, oʻn toʻrtinchi va oʻn beshinchi xatboshilar** bilan toʻldirilsin:

“qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvati quyidagicha boʻlgan alohida turuvchi qurilmalari bilan band boʻlgan yer uchastkalarini:
100 kVt gacha – qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran uch yil muddatga, quyosh panellari quvvatidan 25 foizdan kam boʻlmagan quvvatga ega elektr energiyasini toʻplash tizimi mavjud boʻlgan quyosh panellari oʻrnatilganida esa – ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran uch yil muddatga”;

ikkinchi qismi quyidagi mazmumdagi **ikkinchi, uchinchi va toʻrtinchi qismlar** bilan almashtirilsin:

“Yangi barpo etilayotgan bogʻlar, tokzorlar va tuztorlar egallagan yer uchastkalarini (daraxtlarning qator oralaridan qishloq xoʻjaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishdan qatʼi nazar) uchun besh yil muddatga 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasi boʻyicha soliq toʻlanadi. Bunda vakolatli organ tomonidan bogʻlar va tokzorlarni iqtisodiy jihatdan samarasiz va hosildorligi past deb topish toʻgʻrisida

xulosa berilgan kundan eʼtiboran oʻn ikki oy ichida yangi bogʻlar va tokzorlar barpo etilgan yer uchastkalariga nisbatan soliq stavkasi uch baravar miqdorda oshirilgan holda belgilanadi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida koʻrsatilgan soliq imtiyoz muddatini hisoblash kuzda yangi oʻtqazilgan koʻchatlar uchun keyingi yilning 1-yanvardan eʼtiboran, bahorda yangi oʻtqazilgan koʻchatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvardan eʼtiboran boshlanadi.

Ushbu moddada belgilangan soliq imtiyozlari bevosita moʻljallanilgan maqsadga foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi”;

26) **429-modda:**

birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilisin:
“Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yer uchun bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 gektar uchun mutlaq oʻlchamda quyidagi miqdordarda belgilanadi:

Respublika hududlari	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (mln soʻmda)
Toshkent shahri:	
1 zona	298,1
2 zona	237,6
3 zona	183,7
4 zona	122,1
5 zona	61,6
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	38,5
Andijon viloyati	48,4
Buxoro viloyati	39,6
Jizzax viloyati	39,6
Qashqadaryo viloyati	39,6
Navoiy viloyati	39,6
Namangan viloyati	48,4
Samarqand viloyati	48,4
Surxondaryo viloyati	35,2
Sirdaryo viloyati	29,7
Toshkent viloyati	40,7
Fargʻona viloyati	40,7
Xorazm viloyati	39,6

quyidagi mazmumdagi **beshinchi qism** bilan toʻldirilsin:

“Qishloq xoʻjaligi korxonalarini balansida boʻlgan, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash, shuningdek ipak qurii yetishtirishda foydalaniladigan binolar va inshootlar joylashgan yerlar (bundan ijarra huquqi asosida foydalanilayotgan yer uchastkalarida joylashgan va imtiyozlar tatbiq etiladigan obyektlar mustasno) uchun soliq xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 0,2 koeffitsiyent qoʻllanilgan holda toʻlanadi”;

beshinchi – oʻn oltinchi qismlari tegishincha **oltinchi – oʻn yettinchi qismlar** deb hisoblansin;

yettinchi qismning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilisin:
“Quyidagilar egallagan yer uchastkalarini uchun soliq stavkasiga 0,45 koeffitsiyent qoʻllaniladi”;

sakkizinchi qismidagi “beshinchi va oltinchi” degan soʻzlar “oltinchi va yettinchi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

toʻqqizinchi qismidagi “oltinchi” degan soʻz “yettinchi” degan soʻz bilan almashtirilsin;

oʻn ikkinchi qismi chiqarib tashlansin;
oʻn uchinchi – oʻn yettinchi qismlari tegishincha **oʻn ikkinchi – oʻn oltinchi qismlar** deb hisoblansin;

27) **436-modda:**
birinchi qismning 7-bandi chiqarib tashlansin;

quyidagi mazmumdagi **ikkinchi qism** bilan toʻldirilsin:
“Uy-joy fondining koʻchmas mulk obyektlarida umumiy quvvati 100 kVt gacha boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq summasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari oʻrnatilgan oydan eʼtiboran uch yil davomida, quyosh panellari quvvatidan 25 foizdan kam boʻlmagan quvvatga ega elektr energiyasini toʻplash tizimi mavjud boʻlgan quyosh panellari oʻrnatilganida esa mazkur panellar foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran oʻn yil davomida bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan oshmaydigan sumмага kamaytiriladi.

Ushbu imtiyoz energiya taʼminoti tashkiloti tomonidan jismoniy shaxsning qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan foydalanishi toʻgʻrisida berilgan maʼlumotomaga asosan uy-joy fondining koʻchmas mulk obyektlari bilan band boʻlgan bitta yer uchastkasiga nisbatan faqat bir marotaba taqdim etiladi va jismoniy shaxs tomonidan umumiy quvvati 1 kVt dan ortiq boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari oʻrnatilgan taqdirda qoʻllaniladi”;

ikkinchi va uchinchi qismlari tegishincha **uchinchi va toʻrtinchi qismlar** deb hisoblansin;

uchinchi qismidagi “ushbu modda birinchi qismning 7-bandida koʻrsatilgan” degan soʻzlar “ushbu moddaning ikkinchi qismida koʻrsatilgan” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

28) **437-moddaning birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilisin:
“Respublika hududlari kesimida bazaviy soliq stavkalari 1 kv. m uchun mutlaq oʻlchamda quyidagi miqdordarda belgilanadi (bundan dehqon xoʻjaligini yuritish uchun, shuningdek jismoniy shaxslarga berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yer uchastkalarini mustasno):

Respublika hududlari	1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi (soʻmda)
Toshkent shahri:	
1 zona	1 735
2 zona	1 471
3 zona	1 206
4 zona	948
5 zona	678
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	352
Andijon viloyati	433
Buxoro viloyati	352
Jizzax viloyati	352
Qashqadaryo viloyati	352
Navoiy viloyati	352
Namangan viloyati	433
Samarqand viloyati	433
Surxondaryo viloyati	330
Sirdaryo viloyati	278
Toshkent viloyati	366
Fargʻona viloyati	366
Xorazm viloyati	352

29) **445-moddaning:**

birinchi va ikkinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilisin:
“Belgilangan limit doirasida yer usi va yer osti manbalardan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq oʻlchamda quyidagi miqdordarda belgilanadi:

T/r	Soliq toʻlovchilar va soliq solish obyektlari	1 kub metr uchun soliq stavkasi (soʻmda)	yer osti suv resurslari manbalari	yer osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2-bandda koʻrsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalarini, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar		700	850
2.	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat koʻrsatish korxonalarini	110	135	
3.	Qishloq xoʻjaligi yerlarini sugʻorish va baliqlarni oʻstirish (yetishtirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xoʻjaliklari va qishloq xoʻjaligi yerlariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar	100	100	
4.	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	15 000	15 000	
5.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	38 000	38 000	

Ushbu modda birinchi qismning 3-bandida nazarda tutilgan soliq stavkasiga nisbatan:

suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalari joriy qilinganda hamda sugʻorish

uchun olingan suv hajmi suv oʻlchash uskunalarini asosida aniqlanganda – 0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyent qoʻllaniladi;

suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalari joriy qilinganda yoki sugʻorish uchun olingan suv hajmi suv oʻlchash uskunalarini asosida aniqlanganda – 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent qoʻllaniladi;

baliqchilik uchun olingan suv hajmi suv oʻlchash uskunalarini asosida aniqlanganda – 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent qoʻllaniladi;

suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalari joriy qilinmaganda hamda sugʻorish uchun olingan suv hajmi suv oʻlchash uskunalarini asosida aniqlanmaganda – 1,1 oshiruvchi koeffitsiyent qoʻllaniladi”;

quyidagi mazmumdagi **uchinchi qism** bilan toʻldirilsin:

“Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari soliq stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilashga haqli (bundan ushbu modda birinchi qismning 2 va 3-bandlari, shuningdek roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilar mustasno)”;

uchinchi va toʻrtinchi qismlari tegishincha **toʻrtinchi va beshinchi qismlar** deb hisoblansin;

30) **452-modda:**
birinchi qismi:

7-bandi quyidagi tahrirda bayon etilisin:		
7. Kon-kimyo	Mineral pigmentlar	5,5
xom ashyosi	Yod	4,8
	Mineral tuzlar (tosh tuzi (ovqatga ishlatiladigan), kaliy tuzi, sulfat tuzi), karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar), mineral oʻgʻitlar (glaukonit, fosforitlar va boshqalar) hamda boshqa kon-kimyo xom ashyosi	3,5, biroq 6 160 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan

9-bandi quyidagi tahrirda bayon etilisin:

9. Noruda qurilish materiallari	Sement xom ashyosi, bundan sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktosh mustasno	5
	Sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktosh	6 600 soʻm/tonna*
	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfirtilar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	5, biroq 6 160 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan
	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	5, biroq 10 000 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan
	Marmar	5, biroq 20 000 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan
	Granitlar	5, biroq 30 000 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan
	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	5, biroq 15 950 soʻm/tonna dan kam boʻlmagan
	Gʻisht-cherепitsa xom ashyosi, lyossalar va lyossimon jinslar	5, biroq 4 620 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan
	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shagʻal aralashmasi**	5 000 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan
	Ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktosh, farfor xom ashyosi, keramzit xom ashyosi, mergel, argillitlar, vulqon jinslari, peliti tuffitlar, mineral tula ishlab chiqarish uchun bazalt, diabaz, gliyej, andezitbazalt, temir tarkibli qoʻshimchalar, magnetit-gematitli jinslar va boshqa noruda qurilish materiallari hamda keng tarqalgan foydali qazilmalar	5

izohi quyidagi mazmumdagi **ikkinchi xatboshi** bilan toʻldirilsin:

*** Foyda soligʻini va qoʻshilgan qiymat soligʻini hisoblash maqsadida qum-shagʻal aralashmasini karyerda realizatsiya qilish bahosi 1 kub metr uchun 20 ming soʻmdan kam boʻlishi mumkin emas”;

quyidagi mazmumdagi **ikkinchi qism** bilan toʻldirilsin:
“Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʼiy belgilangan soliq stavkalariga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli”;

ikkinchi va uchinchi qismlari tegishincha **uchinchi va toʻrtinchi qismlar** deb hisoblansin;

uchinchi qismidagi “ushbu moddaning uchinchi qismida” degan soʻzlar “ushbu moddaning toʻrtinchi qismida” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

31) **464-modda birinchi qismning 6-bandi** chiqarib tashlansin;

32) **467-modda:**
birinchi qismning 5-bandidagi “2” raqami “3” raqami bilan almashtirilsin;

uchinchi qismning:
1-bandidagi “25” raqami “30” raqami bilan almashtirilsin;

2-bandidagi “34” raqami “40” raqami bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmumdagi **beshinchi qism** bilan toʻldirilsin:
“Ushbu modda ikkinchi, uchinchi va toʻrtinchi qismlarining qoidalari 2026-yil 1-yanvardan eʼtiboran oʻz kuchini yoʻqotgan deb topiladi”;

33) **470-moddaning birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilisin:
“Tisobot (soliq) davri yakunlari boʻyicha soliq summasi soliq toʻlovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi”;

34) **470-1-modda** chiqarib tashlansin;

35) **483-modda:**
qirgʻ beshinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilisin:

“Byudjet tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan toʻliq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida, shuningdek davlat korxonalarini hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq boʻlgan yuridik shaxslar tomonidan infratuzilma loyihalar (elektr, gaz va issiqlik taʼminotiga, suv taʼminoti va kanalizatsiyaga, suv xoʻjaligiga, yoʻl-transport infratuzilmasiga, aloqa va telekommunikatsiyalarga, agroligistikaga, sanitariya jihatdan

tozalashga, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishga doir loyihalar) uchun xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi (bundan Oʻzbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan xalqaro moliya institutlarining va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablagʻlari mustasno) hisobidan toʻliq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish boʻyicha aylanma, shuningdek ularni olib kirish qoʻshilgan qiymat soligʻidan 2028-yil 1-yanvargacha qadar ozod qilinadi. Bunda mazkur imtiyoz loyiha ish-tirokchilarga nisbatan ham qoʻllaniladi”;

